Xulosa va takliflar. To‘siq qo‘yishda maydonda to‘g‘ri joy tanlash va to‘siqni o‘z vaqtida qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Zonada turgan joyda to‘siq qo‘yish usulida o‘yinchi asosan hujum zarbasi yo‘nalishini to‘sishga harakat qiladi. Harakatli to‘siq qo‘yishda esa zarbaning aniq yo‘nalishini berkitishga intiladi. To‘siq qo‘yuvchi o‘yinchining sakrash vaqti, ko‘pincha, zarba uchun uzatilgan to‘pning holati bilan belgilanadi. Yuqori va o‘rtacha balandlikda uzatilgan to‘plarda to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchi hujumchidan keyin sakraydi, past va tezkor uzatilgan to‘plarda esa hujumchi bilan bir vaqtda sakraydi. Agar hujumchi havoda sakrab zarba beradigan bo‘lsa, to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchi undan oldinroq sakrashga harakat qiladi. To‘siq qo‘yish jarayonida qo‘llar to‘r ustidan yakuniy fazada o‘tkaziladi. Qo‘llar, ayniqsa, kaftlarning joylashuvi zarba yo‘nalishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Клещев Ю.Н. Волейбол. Подготовка команды к соревнованиям [учеб. пособие]. М., “СпортАкадем Пресс”, 2002, 189 с.

(2). Пулатов А.А. Современный волейбол: новые тенденции – новый подход к обучению. “Фан–спортга”, Ташкент, 2004, № 1, с. 13–16.

(3). Айрапетьянц Л.Р., Машарипов Ф.Т. Динамика показателей физической и спортивно-технической подготовленности студенток волейболисток. “Фан–спортга”, Ташкент, 2007, № 1, с. 25–29.

(4). Железняк Ю.Д. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. Учебник для студентов учреждений высш.проф.образования, обучающихся по направлению «Пед.образования» профил. «Физкультура», М., “Академия”, 2013, 288 с.

(5). Masharipov F.T. Voleybol va uni orgatishning pedagogik asoslari. Ro‘zmetov R.T., Ro‘zmetov A.T. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Urganch, 2018, 80-bet.

Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna (Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD); @NKobiljonovna Docent)

PERFORMATIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada performativ yondashuv asosida oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining faoliyatini kollaborativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, performativ yondashuvning nafaqat kasbiy mahoratni, balki ijtimoiy-hissiy aql, empatiya va tashabbuskorlikni ham rivojlantirishga xizmat qilishining nazariy asoslari ham ochib berilgan.*

Kalit so‘zlari*: performativ yondashuv, kollaborativ kompetensiya, psixolog, pedagog, hamkor, diagnostik bosqich, amaliy bosqich, refleksiv bosqich, motivatsion-fasilitativ funksiya, kommunikativ funksiya, koordinatsion funksiya va koordinatsion funksiya.*

Тожибаева Назокатхан Кобилжоновна (доцент НИИ семьи и гендера, к.м.н.; @NKobiljonovna Docent)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕРФОРМАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье на основе перформативного подхода научно проанализированы эффективные механизмы развития совместных компетенций сотрудников семейно-женской системы. Также раскрыты теоретические основы исполнительского подхода, который служит развитию не только профессиональных навыков, но и социально-эмоционального интеллекта, эмпатии и инициативы.*

Ключевые слова*: перформативный подход, совместная компетентность, психолог, педагог, партнер, диагностический этап, практический этап, рефлексивный этап, мотивационно-фасилитационная функция, коммуникативная функция, координационная функция и координационная функция.*

Tojibayeva Nazokatkhan Kobiljonovna (associate professor of the Research Institute of Family and Gender, PhD.; @N_Kobiljonovna_Docent)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PERFORMATIVE APPROACH

Annotation. *In this article, based on the performative approach, the effective mechanisms of the development of collaborative competencies of family and women's system employees have been scientifically analyzed. Also, the theoretical basis of the performance approach, which serves to develop not only professional skills, but also socio-emotional intelligence, empathy and initiative, is revealed.*

Key words*: performative approach, collaborative competence, psychologist, pedagogue, partner, diagnostic stage, practical stage, reflexive stage, motivational-facilitative function, communicative function, coordination function.*

Kirish. Performativ yondashuv insonlar orasidagi munosabatlarni shakllantirishda va munosabatlarning saviyasini ko‘tarishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv adabiyotda va tilshunoslikda keng ilmiy tadqiq qilinsa-da, amaliyot bilan bog‘liq ijtimoiy sohalarda ham keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy soha nuqta-

yi nazaridan performativ yondashuvni quyidagicha tavsiflash mumkin: faoliyat jarayonida qo'llaniladigan so'zlarni amal bilan uyg'unligini ta'minlash, so'z va faoliyat birligini qat'iy prinspga aylantirish, yozma va og'zaki muloqotda intellektual salohiyatning yuqori darajasini namoyish etish orqali muloqot, mulohaza va muzokara madaniyatini ta'minlovchi qoidalar, tartib va me'yorlarni umumlashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar performativ va kollaborativ yondashuvlarga ijtimoiy-huquqiy asos yaratib bermoqda. Bu jarayonda oila va mahalla tizimlari integratsiyasi, ta'lim va tarbiya jarayonining ijtimoiylashtirilishi, xodimlarning kasbiy tayyorgarligini baholashning yangi mezonlari (refleksivlik, tashabbuskorlik, ijtimoiy mas'uliyat) joriy etilgan. Natijada performativ yondashuv ijtimoiy tizimlarda "harakatda o'rganish", "amaliyot orqali o'sish" va "hamkorlik orqali natijaga erishish" kabi yangi kasbiy paradigmani shakllantirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Performativ yondashuv orqali oila, xotin-qizlar tizimidagi mutaxassislar faoliyatini takomillashtirishning afzallik jihati shundan iboratki, qilinishi lozim bo'lgan faoliyatdan kelib chiqqan holda muloqotda qo'llaniladigan so'zlar, tushunchalarning aniq, maqsadli va barqaror qo'llanilishini tashkil etishdir [1;26-b.]. Performativ yondashuv biror bir gapni aytish orqali yo'nalish bildirish, bajarish, belgilash yoki amalga oshirishga intilishni o'z ichiga oluvchi xususiyatdir. Performativ yondashuvning muhim qoidalari quyidagilardan iborat: mas'ul shaxslar tomonidan amalga oshirilishi, mazmuni aniq bo'lishligi va shu mazmunga asosan, bajariladigan faoliyatni amalga oshirishning muayyan shartlari va tizimlari bo'lishi lozimligidir.

Performativ yondashuv tilda ijro etilayotgan gaplar yoki amallarning biror turi orqali hukm qilishni, ko'rsatishni yoki shakllantirishni anglatadi. Bu, odatda, tilning qonuniy vaqti yoki holati uchun qo'llaniladi va o'zining izohlaydigan gaplari bilan bir qatorida keladi. Performativ yondashuv, gapni aytish orqali amalni bajarish va ijro etish orqali gap yaratishdan farqli bo'ladi. Oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining professionalligi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini ta'minlashda hal qilivchi ahamiyatga ega. Boshqa tomondan barcha sohalar kabi oila va xotin-qizlar tizimi ham xalqarolashuv jarayonlarida muhim tizim sifatida qaralmoqda [2;29-b.]. Tizim xodimlarining aynan kollaborativ kompetensiyasi ularning oila va xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, yechim topish va qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Performativ yondashuv XX asrning o'rtalarida til falsafasi, sotsiologiya, semiotika va pedagogika fanlari kesishmasida shakllangan bo'lib, inson faoliyatining mazmuni va natijasi uning nutqiy va ijtimoiy amaliyotlari orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvning asoschisi sifatida ingliz faylasufi J.L.Ostin ko'rsatiladi. U "How to Do Things with Words" (So'zlarni qanday ishlatish kerak) asarida tilning faqat axborot uzatuvchi emas, balki amalni bajaruvchi (performativ) vosita ekanligini ilmiy asoslab bergan [3]. Keyinchalik, J.Searle, J.Derrida, M.Foucault va J.Butler bu yondashuvni ijtimoiy va madaniy kontekstda rivojlantirganlar [4].

Faylasuf J.L.Ostinning fikriga ko'ra, har qanday nutqiy ifoda ikki turga bo'linadi: konstativ (holatni tasvirlovchi) va performativ (amalga oshiruvchi). Masalan, "Men sizni tushunaman", "Men sizni mustaqil deb hisoblayman" kabi ifodalar so'zlovchining ijtimoiy roli orqali voqelikni o'zgartiradi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik jarayonda xotin-qizlar faoli yoki ijtimoiy xodimning so'zlari, harakatlari, ifodasi ham muayyan ijtimoiy-amaliy natijaga ega bo'ladi. Bu holat, o'z navbatida, ijtimoiy-pedagogik performativlik tushunchasini keltirib chiqardi.

J.Butler performativlikni ijtimoiy identitet, ijtimoiy va madaniy rolning shakllanish jarayonida tahlil qilgan. Uning "Gender Trouble" (Gender muammosi) asarida bildirilgan fikrlariga ko'ra, inson o'zining ijtimoiy "men"ini doimiy ravishda performativ amallar orqali yaratadi. Bu yondashuv oila va xotin-qizlar tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ijtimoiy rollarini, masalan, "maslahatchi", "psixolog", "pedagog", "hamkor" kabi pozitsiyalarni ongli ravishda shakllantirish va namoyon etish mexanizmlarini ochib beradi [5].

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy-gumanitar bilimga turli fanlarni integratsiyalash tendensiyalari va shu bilan birga kategorial-tushunchaviy apparatni chuqur farqlashga murojaat qilish xosdir. Performans hodisasi XX asrda ishlab chiqilgan va kundalik voqelikning ijtimoiy, siyosiy, texnogen va boshqa hodisalariga refleksiya bo'lgan nazariyalarda to'liq aks ettirilgan [6;52-b.]. Tadqiqot metodologiyasi va yangi usullarini belgilab bergan lingvistik va vizual burilishlar bilan bir qatorda, zamonaviy gumanitar bilimlarning ko'plab sohalari performativ burilish ta'sirini boshdan kechirmoqda. Faylasuf J.L.Ostin performativ fikr bilan ta'kidlovchi fikr o'rtasidagi farqlarni aniqladi [7;36-b.].

Mazkur yondashuvni oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari faoliyatiga tatbiq etish orqali jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, muloqot madaniyatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi [8]. Chunki performativ faoliyat shaxsning bilish, his etish va harakat qilish darajalarini birlashtiradi. Bu esa o'zaro ishonch, tashabbuskorlik va

mas'uliyatni rivojlantiradi. Ijtimoiy-pedagogik kontekstda performativ yondashuv quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

•diagnostik bosqich – xodimlarning kommunikativ va kollaborativ kompetensiyasini baholash;

•amaliy bosqich–nutqiy, muloqotli, rolli va emotsional performanslar orqali ijtimoiy ta'sir o'tkazish;

•refleksiv bosqich – amalga oshirilgan performativ harakatlarning ijtimoiy natijasini tahlil qilish.

Bu bosqichlar asosida performativ model quyidagi funksiyalarni bajaradi:

•motivatsion-fasilitativ funksiya – jamoada ruhiy iqlimni yaratish;

•kommunikativ funksiya – o'zaro ishonch asosida muloqotni yo'lga qo'yish;

•koordinatsion funksiya – harakatlar birligini ta'minlash;

•innovatsion funksiya – yangi ijtimoiy pedagogik shakl va uslublarni ishlab chiqish.

Pedagogik jihatdan qaraganda, bu kompetensiya oila, maktab, mahalla, tuman va viloyat darajasidagi xodimlarning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini anglatadi. Bunday kompetensiyani shakllantirish uchun tanqidiy fikrlash, empatiya, dialogik madaniyat, muvofiqlashtirish va tahlil qilish ko'nikmalari zarurdir.

Performativ yondashuv asosida kompetensiyani rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi:

•faol ishtirokni ta'minlash – oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari amaliy vaziyatlarga jalb qilinadi (case-study, trening, performans);

•kollektiv refleksiya – harakat va qarorlarning ijtimoiy natijasi tahlil qilinadi;

•baholash va qayta tuzish – xodimlar faoliyatini o'zaro tahlil asosida takomillashtiradi;

•innovatsion amaliyotga tatbiq – tajriba natijalari yangi metodik model sifatida joriy qilinadi. Bu bosqichlar o'zaro teskari aloqaga ega bo'lib, xodimlarning ijtimoiy-pedagogik tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, performativ yondashuv oila va xotin-qizlar tizimi xodimlari faoliyatida kollaborativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuv nafaqat kasbiy mahoratni, balki ijtimoiy-hissiy aql, empatiya va tashabbuskorlikni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda inson faoliyati, ayniqsa, kasbiy va ijtimoiy munosabatlar, amalda namoyon bo'ladigan jarayon sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Мельникова Т.А. Управление системой образования: инновационные подходы. Москва, «Педагогика", 2018, 256 с.

(2). Лебедева О.В. Профессиональная этика в социальной сфере. Санкт-Петербург, "Питер", 2017, 160 с.

(3). Osborne S. The New Public Governance? London, "Routledge", 2010, 224 p.

(4). Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York, Routledge, 1990, 236 p.

(5). Butler J. Bodies That Matter: On the Discursive Limits of "Sex". New York, Routledge, 1993, 224 p.

(6). Brown J., Duguid P. The Social Life of Information. Boston, Harvard Business School Press, 2000, 304 p.

(7). Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. San Francisco, Jossey-Bass, 1991, 192 p.

(8). Schön D. The Reflective Practitioner. New York, Basic Books, 1983, 318 p.

Irisova Lobar Baxrinqul qizi (Jizzax davlat Pedagogika universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti; E-mail: lobarislomova05@gmail.com)

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA 5E MODELINI QO'LLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning birinchi sinfdan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan o'qish savodxonligi darslarini 5E modeli asosida tashkil qilishning pedagogik hamda psixologik tomonlari yoritilgan. Maqolada modelning har bir bosqichidagi pedagogik hamda psixologik tomonlar yoritib o'tilgan. Dunyo miqyosidagi va o'zimizdagi olimlarning ilmiy izlanishlaridagi natija va xulosalar ham kelitirilgan. Bu modelga bugungi kundagi ehtiyojimiz borligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *5E model, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, BSCS, konstruktivistik, motivatsiya, pedagogik, psixologik, o'qish savodxonligi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ 5Е НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ И ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. *В данной статье освещены педагогические и психологические аспекты организации уроков читательской грамотности в начальных классах с первого по четвертый класс на основе модели 5Е. В статье освещены педагогические и психологические аспекты каждого этапа модели. Также представлены результаты и выводы научных исследований ученых мирового и отечественного масштаба. Обоснована потребность в этой модели на сегодняшний день.*